

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

---

**SHERQOBILOV SOBIRJON MENGQOBILOVICH**

**YARIM OSMA PAXTA TERISH MASHINALARINING QATORLAR  
BO‘YLAB YO‘NALTIRISH ANIQLIGI VA MANYOVRCHANLIGINI  
OSHIRISH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va  
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor  
of philosophy (PhD) on technical sciences**

**Sherqobilov Sobirjon Mengqobilovich**

Yarim osma paxta terish mashinalarining qatorlar bo'ylab yo'naltirish aniqligi va  
manyovrchanligini oshirish.....

3

**Шерқобилов Собиржон Менгқобилович**

Повышение точности направления по рядкам и маневренности  
полунавесных хлопкоуборочных машин.....

27

**Sherqobilov Sobirjon Mengqobilovich**

Improving the row guidance accuracy and maneuverability of semi-mounted  
cotton harvesters .....

53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....

57

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

---

**SHERQOBILOV SOBIRJON MENGQOBILOVICH**

**YARIM OSMA PAXTA TERISH MASHINALARINING QATORLAR  
BO‘YLAB YO‘NALTIRISH ANIQLIGI VA MANYOVRCHANLIGINI  
OSHIRISH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va  
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.1.PhD/T420 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi [www.tiame.uz](http://www.tiame.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdazimov Anvar Daniyarovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Rizaev Anvar Abdullaevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Duskulov Abdusattor Axadovich**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligi texnika va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. T.10.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil “\_\_\_” soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100000, Toshkent, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy. Tel.: (+99871) 237-09-45, faks: (+99871) 237-38-79, e-mail: admin@tiame.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy. Tel.: (+99871) 237-09-45, faks: (+99871) 237-46-68, e-mail: admin@tiame.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**B.S.Mirzaev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor.

**U.T.Quziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, (PhD), dotsent.

**K.D.Astanaqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor.

## **KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbliги va zaruriyatи.** Jahonda yetishtirilayotgan paxta hosilini terib olishda yoqilg‘i sarfi va ekspluatatsion xarajatlar ortib borayotgan bir davrda energiya va resurstejamkor paxta terish mashinalarini qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. “Dunyo miqyosida paxta ekin maydoni 30 mln. gektarni tashkil etib, 27 mln. tonnaga yaqin paxta terib olinayotganligini hisobga olsak”<sup>1</sup> ish unumi va agrotexnik ko‘rsatkichlari yuqori paxta terish mashinalarini ishlab chiqarish va amaliyotga keng joriy etish katta ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, energiya va resurstejamkorligi bilan ajralib turadigan vertikal shpindelli paxta terish mashinalarini terim jarayonida qatorlar bo‘ylab yurish aniqligi va manyovrchanligini oshirish hisobiga ish sifatini yaxshilash hamda ularni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxta hosilini terib olish jarayonida paxtaning yerga tokilishini камайтириш, shuningdek, ularning texnologik ish jarayoni va harakatlanishini nazoratlash va boshqarish bo‘yicha yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan terim to‘liqligini oshirish, paxta tolasi shikastlanishi va ifloslanishini kamaytirish hamda energiya va resurslarni tejash imkonini beradigan yarim osma paxta terish mashinalarini yaratishga alohida e’tibor berilmoqda. Shu jihatdan vertikal shpindelli paxta terish mashinalarining harakati kinematikasi, unga ta’sir qiluvchi rul trapetsiyasi va yo‘naltiruvchi g‘ildiraklarni tadqiq etish va asoslash orqali mashinaning yurish aniqligi va manyovrchanligini oshirish hamda agrotexnik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida resurslarni tejash, mehnat va energiya sarfini kamaytinch, qishloq xo‘jalik ekinlarini ilg‘or texnologiyalar asosida yetishtirish va hosilini yig‘ishtirib olish hamda ularni amalga oshirishda qo‘llaniladigan yuqori unumli qishloq xo‘jalik mashinalarini ishlab chiqarish yuzasidan keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yangi taraqqiyot strategiyasida, jumladan “qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish”<sup>2</sup> vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda fermer xo‘jaliklari va agroklasterlarda paxtani terib olishda xarajatlarni kamaytirish bilan birga ish sifatini oshirishni ta’minlaydigan paxta terish mashinalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Ushbu dissertasiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son va 2025-yil 7-yanvardagi “Paxta xom ashyosini yetishtirish va sotishda bozor mexanizmlarini qo‘llashni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-7-son farmonlari hamda 2020-yil 15-sentabrdagi “Paxta hosili terimini mexanizatsiyalashni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari

<sup>1</sup> Cotton World Statistics.<http://www.ICAC.org:statica.com>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi [Farmoni](#)

to‘g‘risida”gi PQ-4828-son va 2024-yil 12-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-431-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Paxta terish mashinalari parametrlarini asoslash, hamda ish ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha xorijda W.S. Anthoty, D.G. Batchholder, R. Borman, R.C. Ecriey, W. Faulkner, S.E. Hughs, W.D. Mayfiyeld, C. Parnell, R. Rohrbach, W.E. Taylor, B. Shaw va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekistonda paxta etishtirishda foydalaniladigan mashina traktor agregatlari harakatini boshqarish va qatorlar bo‘ylab yo‘naltirish barqarorligini oshirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar, asosan, Y.L. Kolchinskiy, I. Marupov, D.I. Xoshimov, G.G.Rasulov, R.D. Matchanov, M.T. Toshboltayev, O.V. Lebedev, A.A. Axmetov, G.E.Topilin, N.B.Barer, Y.V.Groxovskiy, I.N.Azarov, B.A.Qambarov va boshqalarning tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Bu tadqiqotlar davomida shakllantirilgan g‘oyalar, takliflar va tavsiyalar PTM konstruksiyalari va texnologik ish jarayonlarini takomillashtirish yo‘nalishlarida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo‘llanib kelinmoqda. Ammo PTM harakatini boshqarish va barqarorligini tadqiqot ishlari asosan, traktorga osma mashinalarga bag‘ishlangan, so‘nggi yillarda seriyalab ishlab chiqarilib qo‘llanilayotgan traktorga yarim osma paxta terish mashinasini ish unumi va hosilni terish to‘liqligi va ish unumiga sezilarli ta’sir qiluvchi mashinani qatorlar bo‘ylab yuritish aniqligi va manevrchanligi masalalari etarlicha o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiytadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Toshkent davlat texnika universiteti ishtirokida bajarilgan MV-Atex-2018-92, BV-Atex-2018-13 “Yuqori texnik ko‘rsatkichli 60 sm qator oralig‘i uchun to‘rt qatorli yarim osma vertikal shpindelli paxta terish mashinasini ishlab chiqish” mavzusidagi idoralararo davlat ilmiy amaliy loyiha doirasida, ToshDTU bo‘limi - “To‘rt qatorli 60 sm qator oralig‘i uchun yarim osma vertikal shpindelli paxta terish mashinasining manevrchanligi va boshqaruvchanligini, texnologik rostlashlarining barqarorligini oshirish” mavzusida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** MX seriyali traktorga yarim osma paxta terish mashinalarining qatorlarda harakatlanish aniqligi va manyovrchanligini, pirovardida samaradorligini oshirish bo‘yicha texnik yechimlar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

muammoning xozirgi xolatini o‘rganish va osma vertikal shpindelli paxta terish mashinalari ko‘rsatkichlarining avval ishlab chiqarilgan osma paxta terish mashinalari larnikidan pastligi sabablarini aniqlash;

MX seriyali yarim osma paxta terish mashinasining burilish kinematikasini nazariy tadqiq qilish, agregatning burilib qaytish parametrlarini aniqlash;

MX-2,4 paxta terish mashinasi rul yuritmasining asosiy parametrlarini grafoanalitik usulda KOMPAS 3D dasturida tadqiq qilish va optimallashtirish;

yarim osma PTM yo‘naltiruvchi g‘ildiragi avtotebranishlarini tadqiq qilish va rul boshqaruvi kinematik parametrlarini asoslovchi texnik yechimlar va tavsiyalar ishlab chiqish;

yarim osma paxta terish mashinasi yo‘naltiruvchi g‘ildiragi holatini avtomatik nazorat tizimi sxemalari va parametrlarini asoslash, yo‘naltirgich-ko‘rsatkich qurilmalari tajriba na‘munalarini MX-1,8 va MX-2,4 paxta terish mashinalarida joriy qilish;

taklif qilingan texnik yechimlarning loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, tayyorlash va ushbu qurilmalar bilan jihozlangan paxta terish mashinasini dala sinovlaridan o‘tkazish hamda iqtisodiy samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida qator oralig‘i 0,6 m bo‘lgan dalalarda hosilni terib olish uchun mo‘ljallangan to‘rt qatorli MX-2,4 vertikal shpindelli paxta terish mashinasi, uning rul yuritmasi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** MX seriyali vertikal shpindelli paxta terish mashinasining orqa ko‘prigida joylashgan yo‘naltiruvchi g‘ildiraklari hamda rul yuritmalarining parametrlari va matematik modellari, analitik bog‘lanishlar, paxta terish mashinasining maqbul burilish usullarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida oliv matematikaning asosiy qonunlari, nazariy mexanika, matematik statistika usullari, qishloq xo‘jalik mashinalari nazariyasi, hamda kompyuterli modellashtirish kabi usullardan foydalilanilgan, eksperimental tadqiqotlar mavjud me’yoriy xujjalarda (GOST 26025-83, GOST 209152011, O‘z Dst 3090:2016, GOST 24096-80, GOST 7057-2001, GOST 7463-2003) keltirilgan usullar qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** qo‘yidagilardan iborat:

yarim osma paxta terish mashinalarida yo‘naltiruvchi g‘ildiraklarning burilish burchagini o‘lhash orqali ularning holatini avtomatik nazorat qilish va mashinaning qatorlar bo‘ylab aniq yo‘naltirilishini ta’minalash imkonini beradigan tizim ishlab chiqilgan;

MX-2,4 yarim osma paxta terish mashinasi burilishini “Quick Basic” dasturida modellashtirish orqali agregat markazi va uning boshqa harakterli nuqtalarining burilib qaytishdagi traektoriyalari aniqlangan, shuningdek taklif qilinayotgan “1,5 karra ishlov berish” texnologiyasida yalpi hosilni ketma-ket ikki o‘tishda terib olish uchun aggregatning burilib qaytish sxemalari va parametrlari asoslangan;

MX-2,4 paxta terish mashinasi rul trapetsiyasi yon richaglarining ichki va tashqi burilish burchaklarining yo‘naltiruvchi g‘ildiraklar xarakatini barqarorligini ta’minalaydigan asosiy parametrlari - ko‘ndalang tortqi uzunligi va yon richaglar og‘ish burchaklarining maqbul qiymatlari grafoanalitik usulda aniqlangan;

“Matlab-Simulink” dasturi asosida yarim osma paxta terish mashinalarida yo‘naltiruvchi g‘ildiraklarining g‘o‘za qator oralarida harakatlanishini simulyatsiya

qilish modeli ishlab chiqilgan va ularning avtotebranishlari giroskopik effektga bog‘liq holda aniqlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yangi taklif qilinayotgan hosilni ketma-ket ikki o‘tishda qatorlarga “1,5 marotaba” ishlov berish texnologiyasi uchun MX rusumidagi paxta terish mashinalari uchun burilib qaytish yo‘lagi o‘lchamlari va vaqtini minimallashtirish mezoniga ko‘ra burilib qaytish sxemalari tavsiya etildi;

MX-2,4 paxta terish mashinasи manevrchanligi va harakat aniqligini ta’minlovchi rul trapetsiyasi parametrлари asoslandi, yo‘naltiruvchi g‘ildirak holatini avtomatik nazorat tizimi va yo‘naltirgich-ko‘rsatkich qurilmasi kabi texnik yechimlar ishlab chiqildi, ularni joriy qilish agregatni dala chetida burilib qaytish vaqtini va masofasini 50 foizdan ziyodga kamaytirish, g‘o‘za qatorida yuritish aniqligini qariyb ikki barobar oshirish imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi topshiriqqa mos keluvchi tadqiqot usullarini tanlanishi, keltirilgan tahlillar va ishlab chiqilgan matematik model tajriba-sinov natijalari bilan tasdiqlanganligi, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan matematik modellar, optimallashtirish uslubi, paxta terish mashinasini boshqariluvchi ko‘prigi va rul trapetsiyasi konstruksiyasi va parametrlarini takomillashtirish tavsiyalarini amalga oshirish agregat manevrchanligi, uning g‘o‘za qator oralarida harakatlanish aniqligini oshirish, provardida mashinaning texnik darajasini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati avtomatik nazorat tizimi va yo‘naltirgich-ko‘rsatkich qurilmalari bilan jihozlangan MX-1,8 va MX- 2,4 paxta terish mashinalari tajriba na’munalari qo‘llanilganda agregat burilib qaytish yo‘li, vaqtini va burilib qaytish yo‘lagi kengligining o‘rtacha qiymati bo‘yicha seriyali mashinadan 10-20 foiz ustunlikka ega, agregatning smenadagi ish unumдорligi ham shu qiymatlarga oshishi, hamda terish apparati simmetriya o‘qining g‘o‘za qatori o‘qidan og‘ishi o‘rtacha arifmetik kattaligi qariyb 2 barobarga kamayganligi, pirovardida mashinaning ish sifati yaxshilanadi, terim to‘liqligini 2,5-5 foizgacha oshirish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yarim osma paxta terish mashinalarining qatorlar bo‘ylab yunaltirish aniqligi va manyovrchanligini oshirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

vertikal shpindelli paxta terish apparati seksiyalarining qo‘zg‘aluvchan ramkasiga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazining foydali modelga FAP 01580 raqamli patent olingan (O‘z avtosanoat AJ ning 2024 yil 25 - apreldagi 17/07-25-0566 –son m’lumotnomasi). Natijada paxta terish apparatlari barabanlari orasidagi tirqishni avtomatik rostlash imkon yaratilgan;

yo‘naltiruvchi g‘ildiraklar holatini avtomatik nazoratlash tizimi va yo‘naltirgich-ko‘rsatgich bilan jihozlangan MX-2,4 yarim osma paxta terish mashinasи Qishloq xo‘jaligi texnika va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazida sinovlardan o‘tkazilgan (O‘z avtosanoat AJ ning 2024 yil 25 - apreldagi 17/07-25-0566 –son 8

m'lumotnomasi). Natijada paxta terish mashinasining g'o'za qatorlarida harakatlanish aniqligini oshirish, terish apparati simmetriya o'qining g'o'za qatori o'qidan og'ishi o'rtacha arifmetik kattaligini qariyib 2 martaga kamaytirish, pirovardida terim to'liqligi 2,5-5 foizgacha oshirishga erishilgan;

ishlab chiqilgan yangi texnik yechimlar – yo'naltiruvchi g'ildirak holatini avtomatik nazorat tizimi va yo'naltirgich-ko'rsatkich qurilmasining asoslangan sxemalari va parametrlaridan foydalanish uchun "Qishloq xo'jaligi mashinasozligi konstruktorlik-texnologik markazi" MChJga topshirilgan (O'zavtosanoat AJ ning 2024 yil 25 - apreldagi 17/07-25-0566 –son m'lumotnomasi). Natijada joriy qilinayotgan agregatni dala chetida burilib qaytish vaqt va masofasini 50 foizdan ziyodga kamaytirish, g'o'za qator oralarida harakatlanish aniqligini qariyib ikki barobar oshirish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ishlar nashr etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi halqaro jurnallarda, respublika va xalqaro anjumanlar to'plamlarida 8 ta, hamda 1 ta foydali modelga va 2 ta dasturiy ta'minotga patent olingan.

**Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsyaning hajmi 121 betni tashkil etgan.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingen natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsyaning "**Muammoning hozirgi holati va tadqiqot vazifalari**" deb nomlangan I-bobida dissertatsiya mavzusiga doir paxta terish mashinasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari, MX rusumidagi paxta terish mashinasining o'ziga xos xususiyatlari, hosilni yangi takomillashtirilgan texnologiyada yig'ishtirib olish samaradorligini oshirish yo'llari, paxta terish mashinasining harakatlanish aniqligi va manyovrchanligini baholaydigan asosiy omillar, manyovrchanlikni oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlarining tahlili, traktorga yarim osma paxta terish mashinasining rul boshqaruvi tuzilmasi va texnik tavsiflari tahlil etilgan hamda tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Traktorga osma XNP-1,8B 14XV-2,4A rusumli mashinalarda boshqarish kabinasi YG'ning ustiga joylashgani sababli, haydovchi ish jarayonida ishlayotgan dalani yaxshi ko'ra oladi va terish apparatining ishchi tirqishini g'o'za qatoriga

bo‘ylama o‘qi bilan mos bo‘lishini ta’minlaydi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, 3 g‘ildirakli traktorga osma XNP-1,8B 14XV-2,4A rusumli PTMlardan farqli ravishda MX seriyadagi MX-1,8, MX-2,4 va XM-2,8 rusumidagi yarim osma paxta terish mashinasida agregatni g‘o‘za qatorlariga yo‘naltirish ancha murakkablashgan - traktor kabinasidan haydovchiga traktor kapti va paxta qatorlari ko‘rinadi, shu sababli u diqqatini traktor kapotining burchaklariga qaratadi va shu mo‘jal bilan agregatni qatorlarga yo‘naltiradi, bunda paxta terish mashinasining qatorlarda harakatlanish aniqligi pasayishiga, pirovardida, hosilni yerga to‘kilishini oshishiga va terim sifatini yomonlashuviga olib keladi. Bundan tashqari, burilish yo‘lagidan harakatlanganda, orqadagi yo‘naltiruvchi gildiraklar qanday holatda ekanligini ko‘ra olmaydi, haydovchi manyovrni qay tarzda bajarayotganligini aniq bilmaydi.


Muammoning hozirgi holatini tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtga qadar MX seriyadagi traktorga yarim osma paxta terish mashinasi harakati kinematikasi, unga ta’sir qiluvchi rul trapetsiyasi va yo‘naltiruvchi gildiraklarni o‘rnatish parametrlarini nazariy va eksperimental tadqiq etish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Dissertatsiyaning “**MX-2,4 PTMning burilish kinematikasi va qatorlarda harakatlanish aniqligini nazariy tadqiqotlari**” deb nomlangan II-bobida tadqiqot ob‘ekti MX-2,4 PTMning kinematik parametrlari va manyovrchanlik ko‘rsatkichlari, PTMning burilib qaytish kinematikasini Quick Basic dasturi yordamida modellashtirish, rul yuritmasining asosiy parametrlarini grafoanalitik usulda KOMPAS 3D dasturida optimallashtirish va paxta terish mashinasini boshqariluvchi g‘ildiraklarining g‘o‘za qator oralarida harakatlanishidagi avtotebranishlarini tadqiq qilish natijalari tahlili keltirilgan.

Agregatning kinematikasini belgilovchi eng muhim parametrlar quyidagilardir: aggregatning kinematik uzunligi— $L_k$ ; aggregatning kinematik kengligi— $d_k$ ; bo‘ylama bazasi— $L$ ; Agregatning chiqish uzunligi— $e$  (1-rasm).

MX-2,4 PTMning burilib qaytish kinematikasini Quick Basic dasturi yordamida modellashtirish va natijalar taxlili. MTA larining asosiy turlari, sxemalarini tahlil qilish, yarim osma MX seriyali MX-1,8, MX-2,4 rusumidagi “Toshkent qishloq xo‘jaligi mashinasozligi” zavodi (TQXMZ) AJda va “Gomselmash” OAJda (Belarus Respublikasi) ishlab chiqarilgan XMP-1,8 paxta terish mashinasi sxemasi (1-rasm) ma’lum MTA turlari klassik sxemalarning hech biriga mos kelmaydi, bu uning o‘ziga xosligi, shu bilan birga, burilib qaytish kinematikasi yetarlicha o‘rganilmaganligini ta’kidlaydi. Shu sababli, 0,6 m li qator oralig‘i uchun to‘rt qatorli PTMning burilish kinematikasini va manyovrchanligini tadqiq qilish, burilish yo‘lagi o‘lchamlarini asoslash, aggregatning manevrchanligi va g‘o‘za qatorlarida harakatlanishi aniqligini yaxshilash bo‘yicha texnik yechimlar va tavsiyalar ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega.

VSh PTM ning ishchi tezligi 1,5 m/s dan oshmasligi sababli, g‘o‘za qatorlari bo‘ylab harakatlanish va burilishda agregatni barcha nuqtalarining harakat traektoriyasini kinematik o‘rganish mumkin.



**1-rasm. Yarim osma MX-2,4 PTM burilishida agregat markazining joylashishi va uning kinematik tavsiflari (etakchi va boshqariluvchi ko‘priklar g‘ildiraklari orasidagi masofa - koleya teng qilib olingan)**

Ma’lumki, g‘ildirakli MTA burishining asosiy usuli gorizontal tekislikda bir juft g‘ildirakni ikkinchisiga nisbatan aylantirishdir. Yuqorida aytib o‘tilganidek, burilish radiusi ikkita YG‘li traktor yoki MTA uchun burilish sxemasi elementlarining geometrik nisbatlari bilan aniqlanadi:

$$R = L \cdot ctg \alpha_{o'r} \quad (1)$$


bunda  $L$  – mashinaning bazasi, m;  $\alpha_{o'r}$  – ichki  $\alpha_i$  va tashqi  $\alpha_t$  g‘ildiraklarning o‘rtacha burilish burchagi:

$$\alpha_{o'r} = \frac{\alpha_i + \alpha_t}{2} \quad (2)$$

Burilish jarayonida burilish radiusi cheksizlikdan minimal radiusga va yana cheksizlikka o‘zgaradi. Ushbu burilish sxemasini quyidagi shaklda ifodalash mumkin (2-rasm). MX tipidagi PTM ning o‘ng YG‘ning o‘rtasi harakatning traektoriyasi A nuqta berilgan bu nuqta mashinaning yo‘naltiruvchi nuqtasi deb ataladi, bunda g‘ildiraklarning yonboshga sirpanishi yo‘q degan joizlik qabul qilingan. Yetakchi g‘ildiraklar markazlarini bog‘laydigan kesmaning o‘rtasida joylashgan  $O_2$  nuqta (1-rasm) aggregatning kinematik markazi bo‘ladi.

Agregatning harakat traektoriyasini belgilovchi muhim harakterli nuqtalarining traektoriyalari grafoanalitik usulda Quick Basic dasturi yordamida modellashtirildi va ushbu nuqtalarini burilib qaytishdagi harakatini hisoblash va traektoriyalarini qurish natijalari 1-jadvalda va 2-rasmida keltirilgan.  $O_{2+1}$  va  $A_{i+1}$  nuqtalari (1-rasm) ning

ma'lum o'lchamlariga ko'ra, agregatlar xarakterli nuqtalarining quyidagi koordinatalari aniqlandi.



1-oniy aylanish markazi BM; 2- agregat kinematik markazi – (AkM) O<sub>2</sub> nuqtasi; 3- A<sub>i</sub> ichki YG'ning izi; 4-tashqi yo'naltiruvchi g'ildirak A<sub>t</sub> ning izi; 5- agregatning eng chetki tashqi nuqtasi B<sub>t</sub>; 6- agregatning eng chetki ichki nuqtasi B<sub>t</sub> (1-rasm).

## **2-rasm. MX-2,4 PTM harakterli nuqtalarining burilib qaytishdagi traektoriyalari**

Burilish sxemasi bo'yicha qayrilib olish yo'lining parametrlarini (uzunlik X<sub>p</sub> va kenglik Y<sub>p</sub> ning koordinatali to'rida, mm) hisoblash bilan olingan natijalarini tahlil qilish MX-2,4 yarim osma PTM uchun ko'rsatilgan parametrlar boshqa ikki PTM lari ma'lumotlariga nisbatan yuqoriroqdir, chunki u XMP-1,8 va o'ziyurar John Deere 9970 ga nisbatan katta bazaga ega.


### **1-jadval**

#### **Yarim osma MX-2,4 va XMP -1.8, o'ziyurar John Deere 9970 PTM larining burilib qaytish yo'lining ko'rsatkichlarini hisoblash natijalari**

PTM rusumi	Mashina bazasi, mm	Traktor g'ildiragi burchak tezligi, rad/s	Qayrilib olish yo'li parametrlari, mm	
			uzunligi X <sub>p</sub>	kengligi Y <sub>p</sub>
MX-2,4	3940	0,0008	9470	14790
XMP-1,8	3550	0,0009	8310	13060
John Deere 9970	3321	0,001	7450	11950

Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadi, orqa YG'larning holati PTM burilish traektoriyasiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Haydovchiga YG'larning harakat vaqtidagi holati to'g'risida ma'lumot berish, umuman, agregatning boshqaruvchanligini yaxshilashga, xususan, burilib qaytishlar va mashinani g'o'za qatorlarida yuritish aniqligini oshirishga yordam beradi. Bunday ma'lumotni YG'ning burilish burchagini avtomatik o'lchash va nazorat qilish tizimi (YG' ANT) bilan jihozlash orqali olish mumkin. Shuningdek, yarim osma mashinalar orasida XMP-1,8 rusumli PTM burilib qaytish parametrlari MX rusumlilarga nisbatan yaxshiroq (1-jadval). Buning sababi ushbu mashinada TA'lari bir chiziqda, "frontal" joylashganligi natijasida agregat bazasi qariyib 0,4 m ga qisqa. TA "tandem" shaklida joylashtirishga asos sifatida ularga texnik xizmat ko'rsatishga qulaylik yaratish deb olinganini e'tiborga olsak, "frontal" kompanovkaga (XNP-1,8 mashina-lardagi kabi) qaytish

uchun muallif ishtirokida ishlab chiqilgan “VSh PTA qo‘zg‘aluvchan ramkasi” foydali modelga olingan patentdagи texnik yechimdan foydalanish maqsadga muvofiq.




$\theta$ -rul trapetsiyasi burish richagini qiyalik burchagi, grad;  $B$ -shkvorenlar o‘qlari orasidagi masofa, mm;  $m$ - burish richagini uzunligi, mm.

### 3-rasm. MX-2,4 PTM rul trapetsiyasining ko‘ndalang tortqisi uzunligi $n$ ni (-1), (0) va (+1) variantlarda o‘zgartirib yon burish richagning ichki burilish burchagini grafoanalitik usulda aniqlash

MX rusumli PTMning burilish jarayonida YG‘ barqarorligi (sirpanmasdan dumalash) talablarini ta’minlanishi rul trapetsiyasi konstruksiyalari asosida g‘ildiraklarning burilish jarayoni grafoanalitik usulda tekshirildi. Buning uchun KOMPAS 3D dasturida tashqi g‘ildirak burilish burchagiga bog‘liq ravishda ichki g‘ildirak burilish burchagi aniqlandi (4-rasm). Bunda ichki burilish burchagining nazariy qiymati  $\alpha_i$  quyidagi bog‘liqlik yordamida aniqlandi:

$$ctg\alpha_t - ctg\alpha_i = \frac{B}{L} \quad (3)$$

buunda  $\alpha_t$  – tashqi burilish burchagi, grad;  $\alpha_i$  – ichki burilish burchagi, grad;  $M$  – shkvorenlar o‘qlari orasidagi masofa;  $L$  – PTMning g‘ildirak bazasi.



1 –  $\alpha_{in}$  nazariy ichki burilish burchagi; 2 –  $\alpha_{ihq}$  (0) mavjud konstruksiyaning grafoanalitik usulda aniqlangan ichki burilish burchagi; 3 -  $\alpha_{ihq}$  (-1) taklif etilayotgan konstruksiyaning grafoanalitik usulda aniqlangan ichki burilish burchagi; 4 –  $\alpha_{ihq}$  (+1) taklif etilayotgan konstruksiyaning grafoanalitik usulda aniqlangan ichki burilish burchagi


### 4-rasm. MX-2,4 PTMning rul trapetsiyasida yon burish richagning ichki burilish burchaklarining tashqi burilish burchaklariga nisbatan o‘zgarishi grafiklari

Yuqorida keltirilgan grafiklar asosida (-1), (0) va (+1) qiymatlardan qaysi birida xatolik kichik, ya’ni qaysi o’lcham optimal ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tadqiqot natijalariga asosan rul trapetsiyasi ko‘ndalang tortqisi uzunligining optimal qiymati o‘ziyurar 4 qatorli PTMlar: “John Deere 9970” da  $n=1810$  mm, “CASE 420”da esa  $1430$  mm, ni tashkil qildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida olingan MX-1,8 va MX-2,4 PTMlarining rul trapetsiyasida ichki burilish burchaklarining unga to‘g‘ri keladigan tashqi burilish burchaklariga nisbatan o‘zgarish grafigida (+1) holatda grafoanalitik usulda aniqlangan qiymatlар nazariy qiymatlarga yaqin chiqdi. Bunga ko‘ra rul trapetsiyasining ko‘ndalang tortqisi uzunligining optimal qiymati MX-1,8 uchun  $n=1740$  mm, MX-2,4 uchun  $n=1110$  mm, deb qabul qilish mumkin.

PTM YG‘larining g‘o‘za qator oralarida harakatlanishidagi avtotebranishlarini tadqiq qilish. PTM ning ishlash jarayonida g‘o‘za qatorlari egatlarining notejisliklari YG‘larning vertikal tebranishlarini va g‘ildiraklarda giroskopik momentni keltirib chiqaradi. Mashinaning YG‘lar osma tizimi(ko‘prigi)da ikki tekislikda burchakli tebranishlar mayjud (5-rasm).

$YOZ$  tekisligida burchakli tebranishlari parametrlari:  $\psi$ —g‘ildirak o‘qining egilish burchagi;  $C_\psi$ —osmaning burchakli bikrliji;  $J_\psi$ —g‘ildirakning inersiya momenti ( $x$ -o‘qi atrofida).

$XOY$  tekisligida burchakli tebranishlari:  $\phi$ —g‘ildirakning burilish burchagi;  $C_\phi$ —rul yuritmasi va detallarining bikrliji;  $J_\phi$ —g‘ildirakning inersiya momenti ( $z$ -o‘qi atrofida);  $J_k$ —g‘ildirakning inersiya momenti ( $y$ -o‘qi atrofida);  $u$ —tashqi ta’sir.



**5-rasm. Yo‘naltiruvchi g‘ildiraklarning egat bo‘ylab harakatlanish sxemasi**


Ushbu tebranishlar giroskopik effekt bilan bog‘langan quyidagi tenglamalar tizimlari bilan tavsiflanadi:

$$\begin{cases} J_\psi \ddot{\psi} + 2J_k \omega_k \dot{\phi} + C_\psi \psi + u = 0 \\ J_\phi \ddot{\phi} - 2J_k \omega_k \dot{\psi} + C_\phi \phi + u = 0 \end{cases} \quad (3)$$

bunda  $\psi = A \sin \omega t$ ;  $\dot{\psi} = A \omega \cos \omega t$ ;  $\ddot{\psi} = -A \omega^2 \sin \omega t$ ;  $\phi = B \sin \omega t$ ;  $\dot{\phi} = B \omega \cos \omega t$ ;  $\ddot{\phi} = -B \omega^2 \sin \omega t$ ;


MX-1,8 PTM YG‘ning harakatini modellashtirish va simulyatsiya qilish Matlab dasturining Simulink bo‘limi (6-rasm) yordamida amalga oshirildi. Tizimning vizual sinovi juda samarali bo‘lib, eksperimental (dala, laboratoriya) sinovlarga qaraganda

ancha arzon va kam vaqt talab qiladi. Bunda mashina harakatini simulyatsiya qilish, virtual sinab ko‘rish va bajarish, hamda tizimning kirishdagi va chiqishdagi parametrlarini olish hamda parametrlarini o‘zgartirib tizimni sinash imkonini berdi.



**6-rasm. PTM yo'naltiruvchi g'ildiraklari harakati Simulink modeli**

YG‘ning Matlab-Simulink dasturida olingan burchakli tebranishlari grafiklari 7-rasmda keltirilgan. Bunda boshlang‘ich ma’lumotlar sifatida quyidagilar qabul qilingan:  $J_k=13.938 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ ;  $C_\psi = 39753 \text{ N/m}$ ;  $J_\psi=825 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ ;  $C_\phi=39573 \text{ N/m}$ ;  $J_\phi=110 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ .



*a-* g‘ildirak o‘qining egilishi; *b-* g‘ildirakning burilishi.

**7-rasm. YG‘ning burchak tebranishlari grafiklari**

Modellashtirish, ya’ni PTM YG‘lari harakatini simulyatsiya jarayoni 10 sekund davomida olingan natijalarga ko‘ra YOZ tekisligi bo‘yicha g‘ildirak o‘qining egilish burchagi 1,5 s da o‘zining maksimal amplitudasiga etadi ( $5^\circ$ ) va 3 s dan boshlab bir xil amplitudada ( $1^\circ \div 2^\circ$ ) tebranishda davom etib harakatlanadi. XOY tekisligi bo‘yicha g‘ildirak burilish burchagi 2 s da o‘zining maksimal amplitudasiga etadi ( $5,5^\circ$ ) va 2 s dan boshlab bir xil amplituda bilan ( $2^\circ \div 3^\circ$ ) tebranishda davom etib harakatlanadi.

Dissertatsiyaning “**MX-2,4 PTMning harakatlanish aniqligi va manyovrchanligini oshirish bo‘yicha texnik yechimlar ishlab chiqish va dala sinovlariga tayyorlash**” deb nomlangan III–bobida MX-2,4 PTMni YG‘ holatini avtomatik nazorat tizimi (ANT) sxemasi va parametrlarini, PTM rul trapetsiyasining

kinematik parametrlarini asoslash, hamda yo‘nalish ko‘rsatkichi va YG‘ holatini ANT bilan jihozlangan tajribaviy yarim osma MX–2,4 PTMning laboratoriya-dala sinovlari dasturi va metodikasi keltirilgan.

YG‘ ANT g‘ildirak burilish burchagini o‘lchash va natijalarni mexanik haydovchiga axborot berish orqali PTMni manevrslash, qaytib burilish va yangi qatorlarga kirishida haydovchining mashinani boshqarishini osonlashtiradi. ANTning ishonchliligi va samaradorligini ta’minalash uchun o‘xshash tizimlarda qo‘llanilgan metall sarfi yuqori, og‘ir va qimmat induktiv burchak o‘lchash o‘zgartirgichini (O‘O‘) –datchigini arzon va ishonchli potentsiomетrik O‘O‘ bilan almashtirish, elektron blok indikatori va LED hamda tizimning elektr qismini ishonchliligini oshirishga, ayniqsa tizimni agregatlangan traktorning standart elektr tizimi bilan bog‘lash kabi vazifalar belgilab olindi va ular TTZ–811 traktoriga agregatlangan MX–1,8 tajribaviy PTM da amalga oshirildi.

PTM rul trapetsiyasining kinematik parametrlarini asoslash. YG‘ larni  $\gamma$  burchak ostida yonlama og‘ish bilan o‘rnatish g‘ildiraklarni qiya tomoniga og‘ishga majburlaydi. Mashina bilan bog‘langan g‘ildirak biroz yonlanma sirpanish bilan to‘g‘ri harakatlanadi, bu esa shinalarning tez eyilishiga va yoqilg‘i sarfining oshishiga olib keladi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun YG‘larning og‘ish burchaklari PTMni ishlatishda burish sapfasi shkvorenining bo‘ylama va ko‘ndalang og‘ishini rostlashdan mustasno qiladi. Bu esa o‘z navbatida PTMning ish jarayonida faqat rul tortqilarining uzunligini o‘zgartirish orqali g‘ildiraklarning yaqinlashuvini rostlashga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga rul tortqisining uzunligini rostlashda rul trapetsiyasining parametrlarini to‘g‘ri tanlash katta ahamiyat kasb etadi. Chunki rul trapetsiyasining o‘lchamlari quyidagi tenglamani qanoatlantirishi shart:

$$ctg\beta - ctg\alpha = \frac{B}{L}. \quad (4)$$

bunda  $\alpha$  – ichki YG‘ burilish burchagi;  $\beta$  – tashqi YG‘ burilish burchagi;  $B$  – oldingi o‘q buriluvchi sapfalarining shkvorenlari orasidagi masofa;  $L$  – mashina bazasi.

MX–1,8 va MX–2,4 PTMlarining rul yuritmasi, ya’ni trapetsiyasi konstruksiyasida o‘zgarmas o‘lcham shkvorenlar o‘qlari orasidagi  $B$  masofa bo‘lib, bu o‘lcham MX–1,8 da 1800 mm, MX–2,4 da 1200 mm ni tashkil etadi, ya’ni orqa ko‘priklari g‘ildiraklari orasidagi masofa(koleyasi)siga teng qilib olingan. Bu bilan mashinalarni, mos ravishda, g‘o‘za qator oralari 900 mm va 600 mm, bo‘lgan dalalarda ishlay olishi ta’minaladi.

(4) tenglamani bajarilishi YG‘ larni burilish vaqtida sirpanmasdan dumalashini ta’minalaydi. Bunda g‘ildiraklar turli burchaklarga burilishi lozim. Ushbu shartlar bajarilganda, g‘ildirak shinalarning eyilish miqdori minimal qiymatda bo‘ladi.

Mashinaning bazasi  $L$  katta bo‘lsa, burilish radiusining qiymati ham katta bo‘ladi, harakat tezligi yuqori bo‘lib burilish jarayoni sekinlik bilan bajariladigan bo‘lsa ham burilish radiusi katta bo‘ladi.

YG‘lar burilish burchaklari orasidagi munosabatni to‘g‘riligini ta’minalash uchun trapetsiya elementlarining o‘lchamlarini tanlash va bu o‘lchamlarni mashina bo‘ylama bazasi ham burish sapfalari o‘qlari orasidagi masofa ( $V=1800$  mm,  $B=1200$  mm) bilan moslashtirish lozim.

G'ildirakli mashinalarda YG'lar koleyasi o'zgarsa, mos ravishda ko'ndalang tortqi(lar)ning uzunligi ham o'zgartirilishi lozim. aks holda g'ildiraklarning yonlama sirpanishi ortib ketadi va shinalarning jadal eyilishi sodir bo'ladi. 8-rasmdagi rul trapetsiyasi sxemasi bo'yicha YG'larning burilish bo'rchkaklari va rul trapetsiyasi parametrlari orasidagi bog'liqlik quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:


$$\beta = \theta + \operatorname{arctg} \frac{m \cos(\theta + \alpha)}{B - m \sin(\theta + \alpha)} - \arcsin \frac{m + 2B \sin \theta - 2m \sin^2 \theta - B \sin(\theta + \alpha)}{\sqrt{B^2 + m^2 - 2Bm \sin(\theta + \alpha)}}, \quad (5)$$

bunda  $m$ —richagning uzunligi;  $\theta$ —yon richagning qiyalik burchagi.

MX rusumli PTMlarining o'zi xos komponovkasi tufayli rul trapetsiyasi boshqariluvchi ko'prik o'qiga nisbatan orqada joylashgan (10-rasm).

Ma'lumki, MX-1,8 rusumli PTMlarining texnik tavsifnomasida mashina TTZ-LS 100 HC traktori bilan agregatlangan bo'lsa, uning bo'ylama bazasi  $L=3665$  mm, orqa YG'lar shkvoren o'qlari orasidagi masofa  $B=1800$  mm, tashqi YG' izlari bo'yicha minimal burilish radiusi  $R=6,5$  m qabul qilingan.

MX-2,4 rusumli PTM texnik tavsifnomasida mashina TTZ-LS 100 HC traktori bilan agregatlanganda, uning bo'ylama bazasi  $L=3800$  mm, orqa YG' shkvoren o'qlari orasidagi masofa  $B=1200$  mm, tashqi YG' izlari bo'yicha minimal burilish radiusi  $R=6,8$  m qabul qilingan. Ammo, bu o'lchamlar etarlicha asoslanmagan. Shu sababli ushbu o'lchamlarning to'g'ri tanlanganligini yuqoridagi talablar asosida tekshirishni taqazo qildi.



$m$ —yon burish richagining uzunligi,  $n$ —ko'ndalang tortqi uzunligi;  $\theta$ —yon richagning qiyalik burchagi;  $B$ —shkvorenlari orasidagi masofa.

#### 8-rasm. Boshqariluvchi o'qqa nisbatan orqada joylashgan rul trapetsiyasi sxemasi


Rul trapetsiyasining parametrlarini tanlashda burilish markaziga nisbatan ichki g'ildirakning maksimal  $\alpha_{max}$  burchakka burilishida (4) tenglamada keltirilgan YG'larning nazariy va (5) tenglamadagi haqiqiy burilish burchaklari orasidagi minimal farq ta'minlanishi lozim.

Neytral holatda yon richagning qiyalik burchagi  $\theta$ , burish sapfalari shkvorenlari orasidagi  $B$  masofa va yon richaglar uzunligi  $m$ -rul trapetsiyasi kinematikasini aniqlovchi asosiy parametrlar hisoblanadi.

Rul trapetsiyasi yon richagining og'ish burchagi ushbu ifodadan aniqlanadi

$$\theta = \operatorname{arcctg} \frac{xL}{0,5B}, \quad (6)$$

bunda  $\theta$  burchakning optimal qiymatlari  $x = 0,7 \dots 1,0$  oraliqda yotadi.



**9-rasm. MX-1,8 PTM uchun  $x$  ning turli qiymatlarda  $\alpha$ -ichki va  $\beta$ -tashqi YG'lar burilish burchaklarining nazariy bog'liqliq grafiklari**

Olingan ma'lumotlar asosida rul trapetsiyasining asosiy o'lchamlari  $x=0,7$  bo'lganda nazariy qiymatlarga juda yaqin kelmoqda. Shunga ko'ra PTMlarning texnik shartlarida berilgan o'lchamlar asosida rul trapetsiyasining mavjud va tavsiya etilayotgan o'lchamlari 2 va 3-jadvallarda keltirildi.

### 2-jadval

#### MX-1,8 PTM rul trapetsiyasining mavjud va tavsiya etilayotgan o'lchamlari

Rul trapetsiyasi parametrlari	$x$	$\theta, \text{°}$	$n, \text{mm}$	$m, \text{mm}$
Mavjud	1,06	13	1740	130
Tavsiya etilayotgan	0,7	21,5	1647	230

### 3-jadval

#### MX-2,4 PTM rul trapetsiyasining mavjud va tavsiya etilayotgan o'lchamlari

Rul trapetsiyasi parametrlari	$x$	$\theta, \text{°}$	$n, \text{mm}$	$m, \text{mm}$
Mavjud	0,04	19,34	1104	135
Tavsiya etilayotgan	0,7	14,12	1130	158

Xulosa qilinganda, Ts 25272604-017:2015 Tarmoq standartida keltirilgan, texnik va agrotexnik talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan TTZ-LS 100 HC traktori bilan agregatlanuvchi MX-1,8 PTMning bo'ylama bazasi L=3665 mm, YG'lar koleyasi B=1800 mm, tashqi YG' izi bo'yicha minimal burilish radiusi R=6,5 m bo'lganda, MX-2,4 PTM uchun esa TTZ-LS 100 HC traktori bilan agregatlanganda mashinaning bo'ylama bazasi L=3800 mm, YG'lar koleyasi B=1200 mm, tashqi YG' izi bo'yicha minimal burilish radiusi R=6,8 m bo'lganda, yuqorida tavsiya etilgan rul trapetsiyasi parametrlari YG'larni yonlama sirpanishsiz burilishini ta'minlaydi va

pirovardida g‘ildiraklarning yeyilishini kamaytiriladi. Shuningdek, YG‘larning og‘ish burchaklari va yaqinlashuvi to‘g‘ri o‘rnatilganda, PTMlarni manyovrchanligi, qatorlarda yurish aniqligi va barqarorligi ta’minlanadi.

“Yo‘nalish ko‘rsatkichi” va YG‘ holatini ANT bilan jihozlangan tajribaviy MX-2,4 PTMning laboratoriya-dala sinovlari dasturi va metodikasi. YG‘ ANT ning elektron qismiga qo‘shimcha ravishda tizimning mexanik qismi ham modernizasiya qilindi— YG‘ o‘qining burilish burchagini potensiometrik O‘O‘ ga uzatuvchi datchik yuritmasi g‘ildirak o‘qining konstruktiv xususiyatlariga asoslanib ilgari ishlab chiqilgan 2 qatorli MX-1,8 PTM uchun konstruksiyasi MX-2,4 mashinasi uchun modernizatsiya qilindi. Orqa ko‘prik balkasi konstruksiyasidan kelib chiqib YG‘ning vilkasi o‘qiga potensiometrik datchikni joylashtirish imkonini bo‘lmadi. Shu sababli yuritma plastik tishli uzatmalar yordamida uzatiladi, yuritmaning sxemasi va uning o‘rnatilishi 10-rasmlarda ko‘rsatilgan.


PTMning boshqariluvchanligi va harakatlanish aniqligini oshirish maqsadida agregatlangan traktorning old qismiga o‘rnatiladigan manyovrlarni bajarishda haydovchining orientatsiyasini yaxshilash uchun mo‘ljallangan “yo‘naltirgich-ko‘rsatkich” qurilmasi ishlab chiqildi (11– va 13a–rasmlar).



1—potensiometrik datchik; 2—datchik o‘qiga o‘rnatilgan plastik tishli g‘ildirak; 3—YG‘ vilkasi o‘qi; 4—vilka o‘qiga o‘rnatilgan tishli g‘ildirak.

